# FITRAT LIRIKASIDA ISTIQLOL G'OYALARI TALQINI

**Eshmurodova Gulhayo Orifjon qizi**
Samarqand davlat universiteti
2-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7722474

**Annotatsiya:** Maqolada Fitratning o'zi muharrirlik qilgan "Hurriyat" gazetasida "Yurt qayg'usi" nomi ostida e'lon qilingan uch sochma va bir she'ri, "Mirrix yulduziga" va "Sharq" nomli she'rlarida ifodalangan g'oya va mazmun xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar: "**Mijmar" (Cho'g'don), "Sayha" (Bongso'z), "O'zbek yosh shoirlariga", sochma, "Yurt qayg'usi", "Mirrix yulduziga", "Sharq".

# INTERPRETATION OF THE IDEAS OF INDEPENDENCE IN FITRAT'S LYRICS

**Annotation:** In the article, the idea expressed in Fitrat's three poems and one poem, "To the Star of Mirrih" and "Sharq" published in the newspaper "Hurriyat" under the title "The sorrow of the Country", which he edited, and it is about content.

**Key words:** "Mijmar" (Chog'don), "Sayha" (Bongso'z), "To young Uzbek poets", sochma, "The sorrow of the Country", "To the Star of Mirrih", "Sharq".

Turkiston jadidchilik harakatining yorqin vakillaridan biri Abduraf Fitratdir. U madaniyatimiz tarixida shoir, nosir, dramaturg, publitsist, tilshunos va adabiyotshunos, tarixchi va faylasuf, san'atshunos va jamoat arbobi sifatida qoldi. Fitrat serqirra ijodkor bo'lib, adabiy merosi boy, xilma-xil va rang-baranligi bilan ajralib turadi. U zullisonayn ijodkor bo'lib, o'zbek va fors tillarida ijod qilgan. Uning adabiy faoliyati, ijod olamiga kirib kelishi 1903-1904 yillarga to'g'ri keladi. Dastlab "Mijmar" (Cho'g'don) taxallusida she'rlar yoza boshlagan. "Fitrat talabalik yillaridayoq bir devon bo'lishga arzirli (S. Ayniy) she'rlar yozib ulgurgan. "Mijmar" taxallusini qo'llardi. Intiboq (ogohlik, g'aflatdan uyg'onish) davridan oldin ham g'azal va qasidalar yozgan bo'lsa-da, ammo ularda bugungi she'rlaridagi sayqal, yonish va kuyish uchramas edi. Fitrat she'rlarining o'z yurtida nashr etilishiga Sayyid Olimxon ruxsat bermagach, bu to'plam hijriy 1929 (milodiy 1911) da Istanbulda "Sayha" (Bongso'z) nomi ostida talaba-shoirning o'z hisobidan bosilgan edi. Istanbul dorilfununi kutubxonasida saqlanayaotgan bu to'plamning muqovasiga "Fitrat. Sayha. Milliy she'rlar" deb yozilgan bo'lib (fors tilida, arab alifbosida), undan tanlab olingan o'ndan ortiq she'rlar "Sadoi Turkiston" gazetasining 1914-yil iyul oyi sanalarida e'lon

qilingan. Bu she’riy asarlarning har bir bandidan keyin turk tilida uning mazmuni ham bayon etilgan. [2;71].

Fitratning forsiy tilda yaratilgan she’rlaridan tashqari, o‘zbek tilida yozilgan bir qancha she’rlari 20-yillarda “Inqilob”, “Qizil qalam” majmualarida e’lon qilingan. 1922-yilda nashr qilingan “O‘zbek yosh shoirlariga” to‘plamidan o‘ndan ortiq she’rlari joy olgan. Fitrat xalq og’zaki ijodida ayrim unsurlari bo’lgan yangi she’r janri ya’ni sochmani milliy adabiyotimizga olib kirdi. Fitratning zamondoshi Sadriddin Ayniy shunday yozadi: “Fitratning she’riyati haqida yana shunday aytish kerak: shoir o‘zbek adiblari ichida birinchardan bo‘lib folklor shakllarida she’rlar yozadi. Bu ming yilcha davr ichida aruzdan boshqa shaklni bilmagan yozma she’riyatimiz sohasida novatorlik edi. [2;73]

Fitrat o‘zi faoliyat olib borgan “Hurriyat” gazetasida “Yurt qayg’usi” deb nomlangan uch sochmasi va bir she’ri e’lon qilingan. Ularda istiqlol g‘oyalarini baralla kuylaydi. Sochmalarda yurtni mungli ona qiyofasida tasvirlab, Vatanga Onam deb murojat qiladi:

Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?

Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir? [3;31]

Fitrat lirikasida Turkiston dunyosi, birligi, ozodlik, hurriyat g’oyalari ilgari surilgan. Shoir sochmalarida ham: “Ey Ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi! Senga ne bo‘ldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding?” [3;31] – deya xitob qiladi. Ulug‘ Turonning mahzun holiga kuyinadi. Turonni bu ahvoldan qutqarish uchun yer yuzini “urho”lari bilan titratkan arslon yurakli farzandlarni, tuproqlarni osmonlarga uchiradigan tog‘ gavdali, jasur o‘g‘lonlarni qumsaydi, ularni yordamga chorlaydi. Ulug’ Turonni oyoqosti qilayotgan dushmanlarga nafrat bilan qaraydi. Yurni shunday ahvolga tushib qolishiga indamay yo’l qo’yib berayotgan vatandoshlariga achchiq murojaat qiladi. Ulug’ Turonni bu ahvoldan qutqarish uchun birlashishga da’vat qiladi.

Shoir she’rlarida Turkiston o’lkasining ayanchli holini, xalqning dunyo taraqqiyotidan orqada qolib ketganini, millatning mahzun ahvolini tasvirlaydi. “Yurt qayg‘usi” (Bir o‘zbek tilidan) sochmasida shoir yurtni xo‘rlangan, jabrdiyda, mahzun, ayanchli ahvoldagi ona qiyofasida: “Bir xotunki, egnida ipakli, lekin yirtiq va eski bir ko‘ylakdan boshqa bir kiyim yo‘q. Bosh-ayog‘lari yalang‘och, tirsaklarigacha qop-qora loyqadan botg‘an, baqirurg‘a tovushi, qutilurg‘a kuchi qolmagan!.. Qarayman: kimsasizlik yukindan orig‘langan tanda zolimona urilgan qamchilarning yarasi bor. Ko‘raman: johilona qiling‘an emlardan nosulg‘a qaytg‘an yaralarindan qonlar oqib turadur!..” [3;32] – tasvirlaydi. Yurtidan ayrilib judo bo’lmoqni o‘zi uchun o‘lim, Vatani uchun o‘lmoqni esa tiriklik deb biladi. Uni zolimlardan qutqarib, himoya qilishga ont ichadi.

Shoir “Zolimlar seni kimsasizmi ko‘rdilar? Yo‘q, sen kimsasiz emassan. Mana men, butun borlig‘im bilan senga ko‘mak qilurg‘a hozir. Mana men chin ko‘ngil bilan

sening yo‘lingda o‘lurg‘a rozi… Ustimga insonlar emas, shaytonlar qo‘shini kelsa, Oyog‘imga zanjirlar emas, jahannam ilonlari sorilsa, yana sen sari ketarman. Dunyoning butun balolari boshimga to‘kulsa, Zulm cho‘lining temir tikonlari ko‘zlarimga kirsa, yana seni qutqararman. Men sening uchun tirildim, Sen uchun yasharman, Sen uchun o‘lurman. O‘lim seni o‘lmingni istaganlarga, Nafrat seni ko‘mgani kelganlarga!”- deya Turkiston zamini, millatining erk va ozodligi yo‘lida har qanday to’siqlarni yengib o’tishga, hattoki, jonini ham berishga tayyorligini ifoda etgan.

Shoir yurtni zulmdan xalos etish uchun Sohibqiron Temur ruhidan madad izlab boradi.

“Ezilgan boshim, qisilgan vijdonim, kuygan qonim, o‘rtangan jonim uchun bu sag‘anangdan davo izlab keldim, xoqonim! Yuz yillardan beri jafo ko‘rub, g‘am chekib kelgan turkning qonli ko‘z yoshlarin etaklaringga to‘karga keldi. Qorong‘uliklar ichra yog‘dusiz qolgan o‘zbek ko‘zlari uchun tuprog‘ingdan surma olg‘ali keldim. Nomusini bad kishilarning ayog‘lari ostinda ko‘rib turklik qoni qaynag‘ay, musulmonlik hamiyati toshg‘ay, tamug‘ olovlari kabi sachrag‘ay. Lekin o‘z kuchsizligin anglab qaytib o‘tirgan va qon yig‘lagan turkning holini aytarga keldim, xoqonim!” [3;33] Shoir yurti uchun mashaqqatli va muhim bo’lgan pallalarda ota-bobolar ruhidan yordam istaydi. Buyuk Turonning avvalgi shon-sharafini qaytarish uchun oq fotiha so’rab, belni mahkam bog’lab, yurt ozodligi yo’lida kurashishga ont ichadi.

Adabiyotshunos olim Naim Karimovning “Fitratning shaytonga isyoni” nomli maqolasida Fitratning topilmagan “Temur sag‘anasi” nomli dramatik asarini topishda, tiklashda, hech bo‘lmasa g‘oyaviy-badiiy tendensiyani aniqlashda “Yurt qayg‘usi” nomi ostida chop qilingan uch qismdan iborat mana shu nasriy she’rlar zamin, manba vazifasini o‘tashi mumkin ekanligini qayd qiladi. Bu qarashni Hamid Olimjonning 1936 yilda yozilgan “Fitratning adabiy ijodi haqida” maqolasida ham quvvatlaydi. Maqolada shunday fikrlar bor: “Muallif Temur sag‘anasiga borib o‘z fojiasini aytib yig‘laydi: “Xoqonim, ezilib, talangan, talanib yiqilgan, yiqilib yaralangan turk elining bir bolasi sendan ko‘mak istarga keldi”.[5]

Fitratning mashhur she’rlaridan yana biri “Mirrix yulduziga” deb nomlangan she’ridir. Bu she’r unga ko‘plab balo-kulfatlarni olib keldi. 1922-yilda bosilgan “O‘zbek yosh shoirlari” to‘plamiga kirgan bu she’rda shoir yulduzga murojaat qilib, mustamlakachilik davrida yerdagi tubanliklar, yovuzliklar, adolatsizliklar, xo‘rliklar, zulm haqida so‘z ochadi.

Bormi senda bizim kabi insonlar,
Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar.
O‘rtoq qonin qonmay ichgan zuluklar,
Qardosh etin to‘ymay yegan qoplonlar?
Bormi senda, o‘ksuz yo‘qsulning qonin-

Gurunglashib chog‘ir kabi ichkanlar? [3;36]

Butun dunyo tuzugin o‘z qopchig‘ini to‘ldirish uchun buzganlar, o’z nafsi yo‘lida, yurtini, xalqini, borini sotganlar? Senda bormi? U yerda bormi? Yo‘q! Bunday insonlar, yovuzliklar, adolatsizliklar, faqat, yerda bor! Shoir bu she’rida faqat o’z nafsi, manfaati yo’lida hech narsadan qaytmaydigan johil insonlarni qoralaydi, xalqqa murojaat qilib Yurt ozodligi yo’lida birlashishga, hammani bir yoqadan bosh chiqarib kurashishga da’vat etadi.

Fitratning vatanparvarlik ruhidagi she’rlaridan yana biri “Sharq” she’ridir. Unda mamlakatning umumlashma, yaxlit manzarasi chiziladi. Shoirning e’tirof etishicha, u yer yuzidagi eng chiroyli, jannatmakan go’shadir. Uning go‘zal manzaralari, jannatmakon bog’lariga hech bir joy tenglasha olmaydi, hech qayer bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Firdavs Jannatlari uning atrofida, uning betakror gullari jon suvidan ichib yetilgan. Ko‘m-ko‘k yog‘ochlar xuddi Yaratganga mumtozlik haqqi uchun saf tortib ibodat qilishga intiladilar. O‘ngdan, chapdan - har tomondan bahaybat, ko’rkam tog‘lar o’rab olgan. Yo‘q, shoir ularni tog’ ham emas, haq yo‘lida kurashga otlangan yengilmas askarlarga qiyoslaydi. Birorta yirtqich, yovvoyi hayvon hujum qilib, tish-tirnog‘ini suqib olmasin, deya, uni Yaratganning o‘zi himoya qilib, atrofidan aylangan suv, muz, tog‘lar bilan muhofaza etadi. Ammo she’r faqat Vatan ta’rifidangina iborat emas, keyingi qismda shoir yurtning tanazzulga yuz tutishini tasvirlaydi.

Biroq bu kun, esizlarkim, bu o‘lka
Har tomondan talanmishdir yo‘lsizcha,
Madaniyat degan g‘arbli olbosti,
Boqing, buning ko‘kragidan o‘q bosdi. [3;42]

Bu misralarda go‘yoki madaniyat bu Yurtdagi go‘zalliklarni barbod qilgan. Ammo, nega “Madaniyat”? Bu yerda gap 1917 yil Oktabr inqilobi haqida ketyapti. Bu inqilob xalq uchun, xalqning nomidan amalga oshirilgan edi. Natijada, insonlardagi insoniylik tuyg’ulari barbod bo‘lib, yovuzlik, johillik, tubanlik, yovvoyilik kabi hayvoniy hislar junbushga keldi. Yurtning ko‘ksiga o‘q joylab, xarob qilib, tanazzul yoqasiga olib kelgan ham o‘shadir. Bu holatlar asta-sekin oydinlashib boradi. Yonib ketib, kultepaga aylangan qishloqlar, jonsiz tanlar, begunoh kimsalarning qoniga to‘lgan ariqlar o‘rnini tavsilotlar oladi.

To‘rt-besh yashar bir bolaning boshini,
Boqing, keskin qilich bilan kesmishlar,
Yig‘lab turgan onasining boyniga
Bir ip bilan osmishlar!... [3;42]

Bu dahshatlarning bunyodkori kim? So‘roq beradi va “anglizlar!”, “hamda uning quyrug‘ini tutqonlar”,- deya javob beradi. Shu she’rni tahlil qilgan taniqli adabiyotshunos, professor Begali Qosimov quyidagilarni keltiradi: “Qay yer bu o‘lka? Hindmi? Afg‘onmi? Turkistonmi? “Angliz”chi? U shartli emasmikan? She’rni, albatta,

kengroq ham, torroq ham tushunish mumkin. Ya’ni Sharq-G‘arb, Turkiston-Rus shaklida ham anglash mumkin. To‘g‘rirog‘i ham keyingisi bo‘lsa kerak. Va bunga yetarli asos bor edi. Uzoqqa borish shart emas, Qo‘qon fojiasini eslash kifoya”.[6;104]

Xuddi shu she’rni Hamidulla Boltaboyev ham g‘oyaviy-badiiy jihatlarini alohida e’tirof etib, “Fitratning poetik merosida “Sharq” deb nomlangan kichik doston (shoirning o‘zi uni “poema” deb tavsiya etadi)” salmoqli mavqega ega. Unda shoir o‘tli Sharqning “dardli, og‘ir yaralarini yorib” ko‘rsatadi”, [2;73-74] - deb yozadi. Haqiqatdan, “Sharq” she’ri alohida ahamiyatga ega. Bu she’rda Sharqni, mamlakatni, xalqni talon-taroj, oyoqosti qilgan, erki, boyligini o’g’irlagan bosqinchi zolimlarga nisbatan achchiq nafrati ochiq aks etgan.

“Jadid she’riyati poetikasi” nomli kitob muallifi, adabiyotshunos Nodira Afoqova ham bu she’rga alohida to‘xtalib o‘tib, “Fitrat, umuman, insonning inson tomonidan tahqir etilishiga, inson erkiga tajovuz qilinishiga qarshi edi”, [1;96] – deydi.

Xulosa qilib aytganda, Fitrat o‘z ijodini fors-tojikcha she’rlar yozish bilan boshlagan bo‘lsa-da, yigirmaga yaqin oz sonli she’rlari bilan ham turkiy xalqlar dunyosida millatparvar, yoniq bir shoir sifatida tanildi. Fitrat she’riyati, shoirning o‘z tili bilan aytganda “rubobiy she’rlar” nafis va buyuk Sharq she’riyatining butun go‘zalliklari bilan to‘yingan. Fitrat qalbidagi ozodlik, hurlikka intilish uning she’rlarida ham o‘z aksini topgan. Yuqorida ko‘rib o‘tgan, “Hurriyat” gazetasi e’lon qilingan “Yurt qayg‘usi” nomli she’rlari vatanparvarlik tuyg‘ulari bilan sug‘orilgan edi.

Fitrat ijodida vatanparvarlik, millatparvarlik, hurlik va ozodlik mavzulari yetakchi o‘rin tutadi. Fitrat yurt birligi, ozodligini muqaddas bilib, bu yo‘lda jonini qurbon qilishga tayyorligini yuqorida keltirilgan she’rlarida ham ko‘rib o‘tdik.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Afoqova N. Jadid she’riyati poetikasi. –T., Fan. 2005 – 96 b.
2. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. –T., A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007 – 71-74 b.
3. Fitrat. Tanlangan asarlari. I jild. - T., Ma’naviyat. 2000 – 31-41 b.
4. Karimov N. Fitratning shaytonga isyoni // O‘zAS, 1993, 20-avgust.
5. Olimjon H. Fitratning adabiy ijodi haqida // Olimjon H. Mukammal asarlar to‘plami. 10 jildlik. 6-jild. - T., Fan. 1982.
6. Qosimov B. Maslakdoshlar. – T., Sharq. 1994 – 104 b.